

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



MATNSHUNOSLIK ASOSOLARI

fanining o‘quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230600 – Noshirlik ishi

Toshkent-2023

Fan/modul kodi 302MT 3 2		Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024				
Semestr	Har bir semestrda fan/modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
5	Matnshunoslik asoslari	5	4	60	10	26	24	0	90	150
	Jami:	5	4	60	10	26	24	0	90	150

1. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad – adabiyotshunoslik va tilshunoslikni bog'lovchi matnshunoslik ilmining bakalavr bosqichida o'rganiladigan fundamental masalalari yuzasidan nazariy bilim, malaka va ko'nikmasi hosil qilish, so'nggi davrlarda qadimiy qo'lyozma manbalarni o'rganish bo'yicha hukumatimiz tomonidan e'lon qilingan qaror va farmonlar asosida yosh avlodni tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun zamin hozirlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarda matnshunoslikning tushunchaviy apparati, mumtoz va zamonaviy matn qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish asoslari, tayanch nusxani belgilash tamoyillari, mukammal nusxani yaratish usullari, keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ladigan qarashlar tizimini yaratish kabi masalalarni kompleks tadqiq etish.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Talaba bilishi kerak:

– matnshunoslikda va tilshunoslikdagi matn tushunchasining farqi, arab yozuvi tarixi, matnshunoslikning dolzarb muammolari, tabdil, transkripsiya, transliteratsiya, mumtoz matnlarni tushunishda lug'at ilmining o'rni haqida bilimlarga;

– Nasta’liq xatidagi toshbosma va qo‘lyozma kitoblarni o‘qiy olish, XX asr boshi isloh qilingan alifboni o‘qib tushunish, nazmni nasriy bayon qilish, mumtoz matnni muxtasar va to‘la sharhlash, adabiy manbani tasniflash *ko‘nikmalariga*;

– Eski o‘zbek yozuvini, qo‘lyozma kitobda unvonning ahamiyatini, mumtoz matnda ilmiy ko‘rsatkich imkoniyatini, qo‘lyozma turlarini, kataloglardagi ilmiy tavsif tuzilishlari haqida *malakaga ega bo‘lishi lozim*.

3. O‘QUV FANI O‘QITILISHI BO‘YICHA USLUBIY KO‘RSATMALAR

- ma’ruzalar;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O‘tilgan mavzular asosida yozma shaklda o‘tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o‘tilgan mavzular bo‘yicha test shaklda o‘tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o‘tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o‘tkazilishi muddatlari muyyan o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatini

tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

5-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Kirish. Matnshunoslik fanining predmeti va vazifalari. O'zbek matnshunosligi shakllanishining tarixiy ildizlari	Manba va matn tushunchasi. Talqin tadqiqi. Yozuvning paydo bo'lishi va tarixiy ildizlari. Dastlab kitoblarning paydo bo'lishi	2
2	Islom va yozuv	Islom va arab yozuvining turkiy xalqlar madaniyatidagi o'rni. Hijriy va qamariy yil hisoblari. Abjad, ta'rix, muammo	4
3	Temuriylar davri matnshunosligi (XVasr). XVI- XIX asrlar o'zbek matnshunosligi.	Temuriylar davridagi adabiy hayot. Boysung'ur Mirzo – ilm-adab ahlining homiysi. Alisher Navoiy matnshunoslik tarixida o'ziga xos o'rni. "Xazoyin ulmaoniy" asarining o'ziga xos xususiyati.	4
Jami:			10 s.

2. seminar mashg'ulotlar

№	seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Matnshunoslik fanining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti	Mustaqillik yillaridan keyin matnshunoslik tadqiqi bilan shug'ullangan olimlar haqida ma'lumot to'planadi	4
2	S. G'aniyeva ijodida matnshunoslik masalalari	S.G'aniyevaning matnshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi o'rganiladi	4
3	P.Shamsiyev – matnshunos	P.Shamsiyevning matnshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi o'rganiladi	4
4	V.Rahmonov qarashlarida asliyat va tabdil muammolari	V.Rahmonov tadqiqotlarida asliyat va tabdil bo'yicha bildirgan fikrlari umumlashtiriladi	4
5	S.Hasanovning matnshunoslik tadqiqiga qo'shgan hissasi	S.Hasanovning matnshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi o'rganiladi	4
6	Gulxaniy "Zarbulmasal" asari tabdili muammosi	Gulxaniy «Zarbulmasal» asari tabdil qilinadi	6
Jami:			26 s.

3. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Arab yozuvi, musulmon kitobchiligi an'analari,	Qo'lyozma matnlar va ularning umumiy belgilari, xat turlari, qog'oz turlari, yozuv turlari, husnixat, yozuv-bezaklar, sanalashtirish	4
2	Islom madaniyati ta'sirida yuzaga kelgan qo'lyozma manbalar va ularning umumiy belgilari. Kaykovusning "Qobusnoma" asari qo'lyozma nusxasi misolida	Qo'lyozma matnlarning umumiy belgilari va unga tavsif beriladi. "Qobusnoma" asarida matnlarning o'qilishi, belgilar, turkiy matnlarning o'ziga xosliklari	4
3	Temuriylar davri matnshunoslik fanining rivojida yangi bosqich. Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asari misolida	Temuriylar davrida yangi xat turning shakllanishi. Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida xat shakli.	4
4	Qo'lyozma va toshbosma asarlar tadqiqida tadqiqot usulining to'g'ri tanlanishi	Sa'diyning "Guliston" asari nusxalari qiyosiy tadqiqi. Matn tavsifi	4
5	Matnshunoslikning tadqiq	Matniy tafovutlarni tahlil qilish	4

usullari	usuli. Asosiy matn tuzish usuli. Ko'chirishdagi xatoliklarni tahlil qilish usuli. Muallif matni xatoliklarini aniqlash usuli. Matnning ong'li ravishda o'zgartirish hollarini tahlil qilish usuli Kon'ektura yo'li bilan matnmi tiklash usuli. Qo'shimchalar va tushirib qoldirishlarni aniqlash usuli. Matnlarni klassifikatsiya qilish (tasniflash) usuli. Tekstologik belgilarni aniqlash usuli. Matnmi tiklash (rekonstruksiya) usuli.	4
6	Matn tuzish : Matn shakllari va ularni tuzish prinsiplari	Matn tuzishning shakllari. Ilmiy tanqidiy matn tuzish prinsiplari. Ilmiy-ommaviy matn. Yig'ma-qiyosiy matn. Faksimil nashr
Jami:		24 s.

4. Mustaqil ta'lim ishlari

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	S. G'aniyeva ijodida matnshunoslik muammolari	S. G'aniyevaning matnshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi o'rganiladi	6
2	P. Shamsiyev matnshunos	P. Shamsiyevning matnshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi o'rganiladi	6
3	V. Rahmonov qarashlarida asiyat va tabdil muammolari	V. Rahmonov tadqiqotlarida asiyat va tabdil bo'yicha bildirgan fikrlari umumlashtiriladi	6
4	S. Hasanovning matnshunoslik tadqiqotiga qo'shgan hissasi	S. Hasanovning matnshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi o'rganiladi	6
5	Gulxaniy «Zarbulmasal» asari tabdili muammosi	Gulxaniy «Zarbulmasal» asari tabdil qilimadi	6
6	Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asari tabdili	Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asari tabdil qilimadi	6

7	Matnshunoslikning tushunchaviy apparati	Matnshunoslik soha sifatida, lug'aviy va isitlohiy ma'nolar, terminlarga ta'rif, jome' va monce' tushunchasi	6
8	"Xazoyinul ma'oniyy"ga tuzilgan ilmiy ko'rsatkichlar tavsifi	Jadvallar tavsifi, jadvaldagi ranglar izohi, statistik tadqiqq abamiyati	6
9	Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik filologiyaning ibtidosini boshlab beruvchi asosiy qism sifatida	Birlamchi manbalar, qo'lyozma matn, ilmiy istifoda, qiyosiy tadqiqq, faksimil nashr, yig'ma-qiyosiy matn, ilmiy-tanqidiy matn	6
10	ToshDO'TAU "Qo'lyozma va toshbosma adabiy manbalar fondi"dagi 847-raqamli qo'lyozma tavsifi	Alisher Navoiy, kulliyot, qo'lyozma muqovasi, unvon, poygir, kolofon	6
12	ToshDO'TAU "Qo'lyozma va toshbosma adabiy manbalar fondi"dagi 850-raqamli qo'lyozma tavsifi	Bedil, kulliyot, hamd, durud, matla', maqta', ma'rifiy xulosa, mantiq, oriflik	6
13	ToshDO'TAU "Qo'lyozma va toshbosma adabiy manbalar fondi"dagi 855-raqamli qo'lyozma tavsifi	Majmua tavsifi, bayoz, qo'lyozma tuzilishi, devoni Huvaydo, g'azallarning mavzuiy guruhi, statistika	6
14	"O'zbek matnshunosligi qirralari" qo'llanmasi tahlili (Sh.Sirojiddinov va S.Umarova)	O'zbek matnshunosligi, taraqqiyot bosqichlari, ilmiy-tanqidiy matnlar, yig'ma matn	6
15	"Matnshunoslik saboqlari" o'quv qo'llanmasi tahlili (Sh.Sirojiddinov)	Matnshunoslik saboqlari, tekstologik tadqiqq, matn tuzish prinsiplari	6
Jami:			90 s.

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Сирожидинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т. : Академнashr, 2015.
2. Эркинов А. Матншуносликка кириш. Т. : О'қитувчи, 1997.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Alisher Navoiy. Hayrat-ul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso SHamsiyev), –T.: Fan, 1970.
4. Zohidov R. Sabotul o'jizin – ilmiy-adabiy manba. –T.:Muharrir, 2012.
5. Shukurova Z. “Qisasi Rab’uziy” asari tahlili va matniy tadqiqi. – Toshkent “Yashil yaproq” 2021. 134 bet
6. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. T.: “Fan”, 1976.
7. Komilov N. Bu qadimiy san’at... T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1987.
8. Munirov Q., Nosirov A. Alisher Navoiy qo’lyozma asarlari katalogi. –T.: Fan, 1970.
8. Navoiy asarlari lug’ati (tuzuvchilar: P. Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
9. Navoiy dastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrga tayyorlovchi, so’zboshi muallifi S. G’aniyeva. – T.: Fan, 1991.
10. Rahmonqulova M. O’zMU kutubxonasidagi Sharq qo’lyozmalari katalogi. – T.: IPTD O’zbekiston, – 2007.
11. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma’naviyat, 2003.
12. Sirojiddinov Sh. XV–XIX asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.

Internet saytlari

- 1.<http://kutubxona.uz>
- 2.<http://literature.uz>
- 3.<http://ziyonet.uz>
- 4.<http://alisher navoiy.uz>

7. O‘QUV DASTURI HAQIDA MA’LUMOT

O‘quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202__ yil “__” “__” dagi “__” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

“Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent

R.Zohidov _____ (imzo)

Tuzuvchi:

A. Azizullah _____ (imzo)

“Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi dots.v.b,